

INKLYUZIV TA'LIMDA PSIXOLOG FAOLIYATINING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Temirova Mohira Xasanboy qizi

*Namangan viloyati Davlatobod tumani 92-umumiy o'rta ta'lif maktabi
psixologi*

Annotatsiya: Shiddat bilan axborot texnologiyalari komunikatsiya rivojlangani bilan bir qatorda dunyo miqyosida alohida ta'lif-tizimiga muhtoj aholi qatlami o'sib bormoqda. Shu jihatdan, yagona ta'lif konseptual tizimi orqali imkoniyati cheklangan aholini o'qitish va ularni jamiyatga integratsiya qilish eng muhim maqsad hisoblanadi. Inklyuziv ta'lif tashkil etilgan maktablarda psixologik faoliyat samarali tashkil etish uchun malakali, shijoatli va o'z ustida ishlovchi psixolog faoliyat yuritishi lozim. Chunki imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlash jarayoni, ularni mакtabga moslashuvchanligini (adaptatsiya) jarayonini yaxshilash va psixologik sog'lom muhit yaratishda psixolog faoliyati katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: individuallik, inklyuziv ta'lif, moslashuvchanlik, ijtimoiylashuv, yosh hususiyatlari, ijtimoiy vaziyat, samarali harakat, teng huquqlilik.

Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lif tizimida ta'lif olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lif siyosati amalga oshirilmoqda. Bunga normativ-qonuniy hujjat sifatida "Ta'lif to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-son, "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori-4860, 2020- yil 13-oktabr PQ-4860-son, "Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni

tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2021-yil 12- oktabr VM-638-son,Xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to‘lash shartlarini tartibga solish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 1994 yil 29-sentabr 2- ilovasi VM-490-son misol bo‘la oladi. Inklyuziv ta’lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalananadilar, sog‘lom bolalar esa ijtimoiyadolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e’tibor bilan munosabatda bo‘lishni his etadilar. Nogiron bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan yonma-yon o‘qish, tarbiyalanish huquqiga ega. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim sharoitida o‘qitish ularni o‘ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e’tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning yoshlari bir xil bo’lsada, lekin ular bir birlariga o‘xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo’lgan bola ta’lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etish, hamda o‘quvchilarning psixologik hususiyatlarini o‘rganish, tashxislash masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o‘qituvchi bolalarning imkoniyatini e’tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta’sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo’llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to’la yo’lga qo’ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o‘ziga xosliklariga, qiziqishlariga, qobiliyat va o‘quv ehtiyojlariga ega. Barcha yoshdagি bolalar atrofida yashayotgan va sog‘lom bolalar bilan bir xil sharoitda o‘qishlari va kamol topishlari zarur. Inklyuziv sinflar o‘quvchilar va pedagoglarga jamiyatga va maktabga yangicha qarashni rivojlantirish orqali jamiyatning eng yaxshi a’zolari bo‘lishlari uchun yordam berishga yo’naltirilishi zarur.

Maktablarda ta’lim oluvchi o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, sifatli pedagogik jarayonlarni tashkil etish,

ta'lism-tarbiya berish hamda hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish inklyuziv ta'limga rivojlantirishga xizmat qiladi. Zero insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va yutuqlariga bog'liq, chunki har bir inson takrorlanmas. Har bir inson his qilishga va fikrlashga, muloqot qilish huquqiga ega. Xilma-xillik inson hayotining barcha jabhalarini oshiradi. Bular nafaqat ta'limga jahbasi balki hayotiy qadriyatlar hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan bolalardagi imkoniyat va ulardagi yashirin iqtidorlari nuqsonlari sababli cheklanib qolgan. Ularning imkoniyatlari chegaralanib qolganligi oqibatida ular psixologik korreksion yordamga muxtoj. Nogiron bolalar bilan psixologik, profilaktik, korreksion, ta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, ularni ijtimoiy lashuvi, faol hayotga moslashishi, o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanib jamiyatga ma'lum darajada foydasi tegadigan qilib voyaga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Psixologik xususiyatlari, ruhiy va jismoniy munosabatlardagi kamchiliklar va muammolar bevosita inklyuziv ta'limga ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari va his tuyg'ularini nazorat qila olmasliklari, hamda uzoq yillar davomida maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarga sog'lom insonlarning psixologiyasini, ustakovkalarini o'zgartirishdan boshlashimiz kerak. Nogironligi bo'lgan bolalarning ruhiy holati va ularning shaxsiy hususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish va ularni ijtimoiy lashuvi ko'plab omillarga bog'liq. Inklyuziv ta'limga berishda eng avvalo o'qituvchilar o'quvchilarning turli toifada ekanligi va ularning barchasi teng huquqli ekanligini hurmat qilishi lozim. Ma'lumki inklyuziv ta'limga o'quvchilarning iqtidori va qobiliyatlariga qarab ta'limga yo'naltiriladi. Inklyuziv ta'limga bu jamiyatga qo'shilish bosqichi sifatida jamiyatdagি barcha a'zolarning bir-birlarini qabul qilinishi va ishtirok etishga yordam beradigan tarzda o'zgartirish demakdir. Inklyuziv ta'limga nafaqat alohida ta'limga muxtoj bolalar, balki sog'lom bolalar uchun ham rivojlangan, insonparvar va samarali ta'limga tizimini ilgari surishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Inklyuziv ta'limga bolalar bir-birlarini qanday bo'lsalar shundayligicha qabul qilishni o'rganishadi va ular o'rtasida kommunikatsiya muloqot amalga oshadi, va buning natijasida sog'lom bolalarda

ijobiy his-tuyg'ular va shukronalik hislari shakllanadi. Nogironligi bo'lган bolalar esa sog'lom bolalar orasida ular bilan birgalikda ta'lim olishga rivojlanishga harakat qiladilar. Buning natijasida bolalarda o'ziga bo'lган ishonch, qat'iyat, bilim olishga bo'lган qiziqish, matonat kabi irodaviy sifatlar yanada rivojlanadi. Ular o'zlarini jamiyatga, davlatga kerak ekanliklarini his qilib g'ururlanib yashaydilar.

Xulosa qilib aytganda umumta'lim mакtablarida o'z sog'lom tengqurlari qatorida o'qiydigan bolalarga o'qitish va ta'limni to'g'ri tashkil qila bilish har bir nuqsonli bolalarni hayotda o'z o'rnini topishi, o'zlikni anglashi, kelajakda o'z mehnati evaziga hayot kechirish ko'nikmasiga ega bo'lishi, ulardagi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantira olsakgina biz ko'zlagan maqsadimizga yetamiz. Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas balki jamiyatning bir bo'lagi, iqtidor yoki istedod egasi sifatida qarash bugungi ta'lim tizimining asosaiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopyediya. T., 1995
2. Pulatova F., Oligfryenopyedagogika .G'ofur G'ulom, 2006
3. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YuNESKO-2004yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
4. Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim"-“Opereyshen Mersiy” Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.